

ISAJON SULTON ROMANLARIDA TARIXIYLIK KONSEPSIYASI

Ibragimova Dildora Inomjonovna

Alfraganus universiteti,
Sharq filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Tarixiylik ilmi badiyaning muhim muammolaridan biri sifatida milliy adabiyotdagi janrlar taraqqiyoti, yangi obazlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, alohida ijodkorlarning ijodiy shakllanishi, adabiyotda "inson va tarix" tushunchasining ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Insondagi tabiiy ehtiyoj bo'lmish o'z o'tmishini bilishga intilish tarixiy mavzudagi asarlarning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan bo'lsa, tarixiy nasrning janr darajasida ommalashishi tarixiylikning shakllanishiga sabab bo'ldi. Badiiy adabiyotda tarixiylik konsepsiyasi dolzarb ilmiy va badiiy hodisa bo'lib, u tarix va adabiyotning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishiga imkon beradi. XXI asr o'zbek adabiyotida tarixiy konsepsiya tarixshunoslik bilan bir o'zanda rivojlandi. Xalq tarixiga oid yangi topilmalar, talqinlar va nazariyalar badiiy adabiyotda ham o'z aksini topa boshladi. O'zbek millati tarixini turkiy xalqlar va ularning ajdodi sifatida Xun imperiyasi bilan bog'lab o'rganish natijasida olingan xulosalar zamonaviy adabiyotda ham bo'y ko'rsatmoqda. Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani ana shunday tarixchilik yutuqlari zahirida yuzaga kelgan badiiy asar hisoblanadi.

Roman muqaddimasi Bilga xoqonning quyidagi mashhur so'zlari bilan boshlanadi: "Butun Yer yuzi kishi o'g'lining qizil qoniga arzimaydi" [1]. Bu bilan muallif romanning bosh maqsadi - inson konsepsiyasining mohiyati Yer yuzidagi barcha narsa inson omili, inson qadri uchun ekaniga ishora qiladi. Asar avvalida yoshi bir joyga borgan, vaqt va yaqinlardan ayriliq sabab keksaygan, chag'ir ko'zlari xiralashgan, sochi siyraklashgan, inisi Kultegin o'limidan so'ng tushkunlikka tushib qolgan Bilga xoqonning badiiy qiyofasini tasvirlanadi. Butun umri jangu-jadal. Savashlarda o'tgan Bilga xoqonning umri yakunida kelgan xulosasi ham shunday edi: butun Yer yuzi kishi o'g'lining qizil qoniga arzimaydi.

Muallif o'z usuliga ko'ra, asar voqealarini yozishda asl manba ma'lumotlariga va manbaning bayon qilish uslubiga qat'iy ergashadi. Asar voqealarini bitiktoshlar tilida va uslubida bayon etish bilan o'sha davr ruhini kitobxonga yanada ta'sirchan usulda yetkazishga muvaffaq bo'ladi. Roman muqaddimasi butun asar matnini ochuvchi kalit tarzida tuzilgan bo'lib, unda asarning asosiy voqealariga ishora qiladi. Bilga xoqon tilidan berilgan mazkur ishoralar tarixiy asosga ega hisoblanib, xoqon tomonidan toshga o'yib yozdirilgan bitiktosh matni mazmunidan olingan. "Inim Kultegin o'ldi, qayg'urdim. Ko'rar ko'zim ko'rmasdek, bilar biligim bilmasdek bo'ldi... O'zimcha qayg'urdim. Bir tangri yashar. Kishi o'g'li o'lgali tug'ilar ekan". Ushbu satrlar manbada quyidagicha keladi: "Иним Кул Тигин карга болты, озим сақынтым; корур козум кормас таг, билир билигим билмас таг болты, озим сақынтым. Од тангри йасар, киси оғлы қоп олигли торумис [50]". Ulug' bitigidan olingan parchada Bilga xoqon boshdan kechirgan savashlari, jangu-jadallarda qozongan g'alabalari, ularda inisi Kulteginning ko'rsatgan qahramonliklari haqida yozaturib, inisidan ayrilish qanchalik og'ir bo'lganini o'z davri nuqtai nazaridan ifodalaydi.

Roman uch bo'limdan iborat, muqaddimadan so'ng boshlangan birinchi bo'lim "Kichik Yish", "So'zchilar", "O'tukan Yish", "Bilga xoqonning o'tmishi", "Yig'in", "Ko'gman tog'i", "Inigach ko'l yoqasidagi savash", "Yishga qaytish", "Ishbara Yamtarning o'tmishi", "Tabg'achning o'tmishi", "Meyli Chur", "O'ng o'qqa yurish", "Yaris cho'lida urush", "Kishi o'g'li o'tmishi", "Ko'kyol ona bo'ri", "Bayram" nomli jami o'n olti sahnaga ajratilgan. Birinchi bo'lim tikboshligi qolmagan, ochligi va yo'qsilligidan bir-birini yeyar turumga kelgan turkiy xalqlarni bir yerga to'playdi va ularni birlashtiruvchi maqsadni o'rtaga tashlaydi. "Yig'in" sahnasida xalqning xoqon to'plaguniga qadar tushgan ahvoli tasvirlanadi: "Yovuq-yiroqdan



mingdan oshiq er to'planib kelgan, bola-chaqasi, enalariyu achalari, otalariyu dadalari ozgan-to'zgan, necha yillardir xoqonsiz, o'ksib yashayotgan budunni jo'shtirib, bir nech otliq tevarakni aylanib baqirib, yig'inga chorlardi"¹. Bu sahna orqali xalqni birlashtirish ehtiyoji ikki tarafdama ekani, hukmdor uchun uyushgan xalq, xalq uchun yetuk boshqaruvchi, rahbar ehtiyoji izohlanadi. Ya'ni, sarkardalar, yetakchilar uchun xalq qanchalar lozim bo'lsa, xalq uchun o'z ishini va kuchini berishga munosib xoqon shunchalik zarur ekani, xoqonsiz xalq o'ksik ekani tasvirlanadi. VI asr Osiyo hududida yashovchi turkiy xalqlarda ana shunday o'ksiklik, ochlik va nochorlik mavjud edi.

Bilga xoqon mol, yilqili xalqqa xoqon bo'lib o'rnashmagani, ichi oshsiz, toshi kiyimsiz, och-yalang'och, yovuz, yomon xalq uzra xoqon bo'lgani haqida bitiklarda qayd etiladi. "Наңг йылсығ бодунқа олурмадим, ичра ашсыз, ташра тонсыз йабыз йаблақ бодунта уза олуртым. Иним Кул тигин бирла созлашдимиз, қанғымыз ачимиз қаз(ғанмыш будун ата косу йок болмасун)" [2]. Shuningdek, romanda turk, tabg'ach, jangju, o'g'uz, o'ng o'q, qirg'iz kabi qabila nomlari, Tangritog', Ko'gman tog'i, Yaris cho'li, Vey daryosi kabi tarixiy toponimlar uchraydiki, muallif ularni tarixiy manbalar asosida asarga olib kiradi. Shuningdek, romanda Bilga xoqonning to'rt yirik jangi - uch qardosh xalq va tabg'ach xalqi bilan janglari yoritiladi. Manbalar xoqonning o'n to'qqiz yil davomida ko'plab qabila va elatlar bilan so'qishgani hamda qozongan g'alabalaridan xabar beradi. Ammo, janglar orasida ham strategik, ham ko'lam jihatidan eng yiriklari Isajon Sulton romanida nomi keltirilgan xalqlar o'rtasida ro'y beradi. Shunga qaramay, romanda tarixiy faktlardan foydalanishda muallif talqini ko'zga tashlanadi. I.Sulton asarda tarixda mavjud bo'lgan, ammo keyin aniqlashning imkoni bo'lmagan tarixiy ma'lumotlardan foydalanishdan qat'iy tiyiladi. Ilmda izohi topilmagan xalqlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari va hodisalarni chetib o'tib, o'z asarining bugungi kitobxon uchun tushunarli hamda o'qimishli bo'lishiga harakat qiladi. Shuningdek, bitiktoshdagi xronikal ma'lumotnoma tartibini o'zining badiiy tasvirlash usuli bilan almashtiradi.

Romanning birinchi bo'limida xoqonning xalqni birlashtirishi mustaqillikni saqlash maqsadida atrofdagi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan uch qardosh xalq - to'qqiz o'g'uz, o'n o'q hamda qirg'izlar bilan jang voqealari yoritiladi. Tarixda mazkur xalqlar bilan kechgan janglar haqida ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da, muallif bu janglarni o'z badiiy niyati hamda roman janri talablaridan kelib chiqib obrazli tarzda qayta quradi.

Bilga xoqon lashkarining to'qqiz o'g'uz qabilasi bilan janglari haqida manbalarda farqli ma'lumotlar uchraydi. Ulug' bitigida qardosh xalqlar bilan bir yilda besh marotaba jang qilingani aytiladi: "Тоқуз оғуз бодун канту бодуным арти; тангри йир булғақын учун йағы болты; бир йылқа биш йолы сунгушдимиз"[44]. Manbada bir yilda 5 marotaba jangga kirilgani aytiladi: 1) To'g'u shahrida to'qqiz o'g'uz bilan jang; 2) Qushlag'aqda Adiz bilan jang; 3) Bul...unda o'g'uzlar bilan bo'lib o'tgan jang; 4) Chush boshidagi jang; 5) Azganti Qadazda o'g'uzlar bilan jang [Ulug' bitig: 44,45,46,47,48]. Bilga xoqon bitigida esa bir yilda to'rt marotaba savashga kirilganligi yoziladi. "... тоқуз оғуз мангинг бодуным арти. Тангри йар булғақын учун одинг... [29] ... куни тагдук учун, йағы болты. Бир йылқа торт йолы сунгушдим [30]". Manbada o'g'uzlar bilan bir yilda to'rt marta jang qilingani, eng avval To'g'u baliqda (To'g'la daryosi yaqinida - ta'kid bizniki), ikkinchi marta Antarg'uda, uchinchi marta Chush boshida jang bo'lgani va turklar juda qattiq charchagani, nihoyat, Azganti Qadazda so'nggi jangda lashkarini yengib, davlatini olgani aytiladi [Bilga xoqon bitigi: 30, 31]. Toshbitiklarda kelgan Antarg'u, Azganti qadaz kabi aksar joy nomlarining hozirgi geografik joylashuvini aniqlashning imkoni bo'lmagan bo'lsa-da, manbaga asoslanib 715-yil Bilga xoqon o'ttiz bir yoshida o'g'uzlar bilan bir yil davomida 4-5 marta jang qilgani, To'g'la (hozirgi Tola - ta'kid bizniki) daryosi bo'yida boshlangan janglar uzoq davom etib, so'ngida qiyinchilik bilan g'alaba qozonilganligini ayta olamiz.

Romanda o'g'uzlar bian jang "Inigach ko'l yoqasidagi savash" deb nomlanadi. Inigach - ingichka ko'l muallifning badiiy topilmasi bo'lmish jangdagi muhim pistirma vazifasini bajaradi.

¹ Султон И. Билга хоқон: роман, қисса ва ҳикоялар / Т.: Factor Books, 2022. - Б. 32.



Adib qardosh xalq bilan jang oldidan insonparvarlik, millatsevarlik sifatlarini yana bir bor namoyish etadi. Ko'gman tog'i (janubiy Sibir tog' tizmalarining o'rtasida joylashgan tog'li hudud, hozirgi Krasnoyarsk, Irkutsk, janubiy Tuva va Buryatiya respublikalari hududi)dan quyi inib, Inigach ko'liga yetib kelgan Bilga xoqon "To'qqiz o'g'uz o'z qardoshimiz, qonimiz bir. Tuyqusdan bossak-chopsak er kishining ishi bo'lmas", - deydi va so'zchi yuborishga qaror qiladi. So'zchilarga o'g'uz xalqi so'z o'yini qiladi va shunday javob qaytaradi: O'layotgan arslon sichqon inini ko'zlar! Qardosh xalq budunni kuchsizlangan hisoblab, O'ng o'q va Tabg'ach bilan gapni bir joyga qo'ygan va xoqon qo'shinini nazarga ilmay turgan chiqadi. Adib shu o'rinda ustalik bilan huddi yuqoridagi maqol mazmunida yana bir maqolni Bilga xoqon tilidan so'zlatadi: "Arslon o'kirsa, ot tuyog'i mayishadi". Bilga xoqon kuchlar teng bo'lmagan bu jangda ham ham donoligi, ham arslon kabi shiddatli ekani sabab g'alabani qo'lga kiritadi. Bitiktoshlarda Bilga xoqonning bu kabi g'alabalari adadi juda keng. Bilga xoqon yodgorligida xoqonning o'n yetti yoshida boshlanib, o'ttiz sakkiz yoshiga qadar boshdan kechirgan janglari haqida ma'lumotlar uchraydi.

"Bilga xoqon" bitigida xoqon o'tkazgan janglar xronikasi

Yil	Savash o'tkazilgan xalq nomi, manba
701-yil (17 yosh)	Tangut xalqini yengdi [24]
702-yil (18 yosh)	Olti chub so'g'daq bilan jang, tabg'ach, O'ng tutuq bilan Idar boshida jang, basmil, idiqut qardosh xalqlar bilan jang [24]
706-yil (22 yosh)	Tabg'achga, qirg'izga yurish [26]
711-yil (27 yosh)	Qirg'izlarni uyquda bosish [26] Shu yil Irtish daryosini kechib o'tib, turgash xalqini uyquda bosish [27]
714-yil (30 yosh)	Beshbaliq tomonga yurish, olti marta jang [28]
715-yil (31 yosh)	Qarluq bilan jang [28], to'qqiz o'g'uz bilan jang [29]
718-yil (34 yosh)	O'g'uzlar, tatabi xalqi, qarluqlar bilan jang. Tabg'achlarning o'n yetti minglik lashkarini yengish [shimol tomon - 1]
722-yil (38 yosh)	Qishda qitaniyga, yozda tatabiga hujum [shimol tomon - 1]

Manbada, shuningdek, xoqonning o'n to'qqiz yil shad bo'lgani, o'n to'qqiz yil xoqon bo'lib turkiy xalqqa ozodlikni ta'minlab bergani yoziladi. Romanda esa xoqonning janglari maqsad va ko'lami jihatidan oddiydan murakkabga qarab o'sib boruvchi tartibda joylashtiriladi. Bilga xoqon boshliq turkiy xalq qo'shini Inigach ko'l yoqasidagi to'qqiz o'g'uz bilan savashdagi g'alabadan so'ng o'n o'q va qirg'iz xalqining birlashgan qo'shiniga duch keladi. Muallif tarixda qayd etilmagan bu jangni o'zining ijodiy muddaosini amalga oshirish maqsadida sahnalashtiradi.

Sahnaning eng kulminatsion nuqtasida Yaris cho'lida o'n minglik qondosh qirg'iz, qitan va o'n o'q urug'laridan yig'ilgan qo'shin saf tortadi. Bu quratli qo'shin qarshisiga Bilga xoqon o'zining atigi uch minglik lashkari bilan chiqib keladi. Xoqonning inisi, ko'zi bo'riday yongan Kultegin dushmanga tashlanish uchun izn so'raydi, ammo xoqon qondosh xalqqa tuyqusdan chopqin qilmay urf-odatini qilib dushmanga elchi yo'llash tadorigini ko'radi. Shu mahal sahna voqealari va savashning taqdiri kutilmagan tomonga o'zgarib ketadi. To'satdan o'n o'q qo'shini ichidan munkillagan qari ayol - aba chiqib jang maydonining o'rtasiga keladi va boshbog'ini yerga tashlaydi. Shu bilan urush tugaydi: "Dovruqli turkiylarda shunday tuzuk bor edi, - deb yozadi muallif. - Agar urush to'g'rilikcha bitmasa, erlaru og'a-inilar bir-biri bilan kelisholmasa, xotinlar qo'shin oldiga chiqib, boshidagi yopinchig'ini yerga tashlar edilar...". Isajon Sulton tarixiy muammo - og'a-ini, qon-qarindosh, qardosh xalqlar o'rtasida yuz berib kelayotgan nizolar, jang-jadallarga o'z badiiy olamida ajoyib yechim topadi. Erlar yigitlari savashib yecha olmagan nizolarga millatning onalari barham berishga qodir. Ularning qasami - aziz bosh kiyimini yerga tashlashi har ikki tarafdagi qirg'inga o'ch farzandlarning g'azablarini so'ndirishga qodir. Zero, onaning aziz boshini bosib o'tishga hech bir farzandning haddi sig'maydi.



Isajon Sulton romanida ayollarning jamiyatdagi o'rnini yuqori baholanadi, ayniqsa, turkiy ayollarning turmushning barcha sohasida erkaklar bilan bir safda yelkama-yelka turishi alohida ta'kidlanadi. Adib hatto turkiylarning eng muhim jangi - tabg'achlar ustiga qilingan yurishda ayollarning jangga kirgani va erkaklar bilan tengma-teng jang qilgani haqida yozadi. "Xotinlar urushga kirganini ko'rgan erlar jo'shib ketishdi. Endi ochunda bu budunni yenga oladigan biron bir kuch yo'q edi". Turk ayollarining janglarda qatnashishi haqida bundan oldinroq tarixchi Ibn Arabshoh shunday yozadi: "Temur lashkarlari orasida ayollar ham bo'lib, ular dushman bilan bo'lgan to'qnashuvlarda matonat ko'rsatardilar. Nayza sanchishda, qilich o'ynatishda va kamondan mo'ljalga olishda mohir erkaklardan ko'ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo'lib yo'lda ketayotgan paytda uni dard tutsa, yo'ldan chetga chiqardi. U tezda yig'ishtirib olgach, tag'in uloviga minib jangga kirardi" [3]. Turkiy ayollarning urushdagi o'zg'irligi haqida shu kabi tarixiy ma'lumotlar "Bilga xoqon" romanida ayollarning jangga otilishi sahnasi uchun asos bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Romanning ikkinchi bo'limi yana bir jihati bilan e'tiborliki, unda yangi tuzilgan mustaqil turkiy davlatchilikning qonuniy asoslari yaratilishiga katta e'tibor qaratiladi. Savashlar nihoyasiga yetgach, Bilga xoqon O'tukan Yishga qaytadi va bu yerda milliy pul siyosati - turkiy xalqlarning tangalarini muomalaga kiritadi. Shuningdek, yurtning yangi qonunlari ishlab chiqilib ommaga tanishtiriladi va xalqning qo'llab-quvvatlovi ostida qabul qilinadi. "Yasa" deb nomlanuvchi ushbu Qonun asosida davrning talabidan kelib chiquvchi insonparvarlik, adolat, hamjihatlik, to'g'rilik va sadoqat g'oyalari aks ettirgan ilk turkiy davlatlar Nizomi edi.

Asarda Bilga xoqon, Kultegin, Bilga To'nyuquq, Ishbara yamtar kabi real tarixiy shaxslar qatori Meyli Chur, Bulut kabi to'qima obrazlarga ham keng o'rin beriladi. Asarda intrigani kuchaytirish maqsadida kiritilgan salbiy qahramon Meyli Chur obrazi o'sha davr chinliklarga yaqinlashish orzusi bilan yashagan turkiy yigitlarning umumlashma obrazi hisoblanadi. Bu qahramon tasviri orqali muallif olis tarixda tabg'achga kuyov bo'lib o'z ota urug'ini unutgan turkiy yigitlarning hayot haqiqatini oshkor qiladi.

Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida tasvirlangan voqealar zanjiri tarixiy shaxslar, ijtimoiy jarayov va real tarix bilan mos keladi. Muallif asarni yaratishda muhim tarixiy manbalar - O'rxun-Enasoy bitiktoshlari, Xitoy yilnomalari, arab va fors tarixchilarining ilmiy manbalaridan unumli foydalanadi. Ayrim o'rinlarda asarning o'quvchanligini ta'minlash maqsadida badiiy to'qimalar kiritilgan bo'lsa-da, asarda umumiy tarixiy kontekst buzmay ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Султон И. Билга хоқон: роман, қисса ва ҳикоялар / Т.: Factor Books, 2022. - Б. 1.
2. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд (Энг қадимги даврдан XIV асргача). ЎзРФА Фан - 2003. - Б. 57.
3. Amir Temur tarixi (1-, 2-kitoblar; so'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U. Uvatov), T.: 1992. manba: <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/amir-temur-lashkarlari-orasida-ayollar> (Ko'rilgan sana: 10.03.2024).

